

**ODIL YOQUBOVNING “DIYONAT” ROMANI VA UNDAGI OBRAZLAR
TALQINI**

Rayhona ABDOSHIMOVA,
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878166>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Odil Yoqubovning “Diyonat” romani hamda bu romanda obrazlar talqini masalasi yoritilgan. Jamiyatdagi ziddiyatli muammolar va unda rahbar hodimlarning mansab vazifasini suiste’mol qilishi, bundaylarga qarshi halol, diyonatli, insofli shaxs tasviri gavdalanirilgani romanning o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi. Roman orqali undagi ijtimoiy, psixologik hamda falsafiy qarashlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan va fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Jamiyat, halol, diyonat, insof, berahm, shavqatsiz, yozuvchi, adib, talqin, adabiyot, drama, qissa.*

XX asrning so‘nggi choragida mamlakatimiz miqyosida muhim evrilishlarning yuzaga kelishi xalq madaniy-ma’rifiy turmush tarzini jiddiy ravishda o‘zgartirib yubordi. Millatning ma’naviy mustaqillikka erishish jarayoni, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jabhalarni tubdan isloh qilishga ehtiyoj tug‘dirdi. Jamiyatning barcha sohalarida kuzatilayotgan demokratik yangilanishlar - millatning ozodlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lidagi intilishlari, adabiyotshunoslik oldiga muhim vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

Milliy istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda yangilanish jarayoni yuzaga keldi va u barcha sohani qamrab oldi. Yangi O‘zbekistonda xalqimizning asriy ma’naviy qadriyatlarini yanada yuksaltirish, yaqin tarixdagi madaniy-adabiy merosni yangi O‘zbekiston mafkurasi asosida xolis o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Yurtimizda adabiyotni yuksaltirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu albatta o‘zligimizni anglashga katta imkoniyat yaratadi. “Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”. Prezidentimizning ushbu fikrlari adabiyotimiz kelajak ravnaqiga katta ishonch bilan qarashga asos yaratadi.

Badiiy ijodning muhim halqalasi hisoblangan poyetika ilmiy-amaliy sarhadlarni to‘g‘ri tayin etish, adabiy-nazariy tahlillar, turli janrdagi asarlarning yangicha ifoda yo‘sinidagi takomilini yuzaga chiqardi. Yangi davr o‘zbek adabiyoti xususan, roman janri shakliy tadriji inson ma’naviyati va ma’rifati yaxlitligining doimiy dolzarbligini inobatga olish haqidagi masala mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Adabiyot sohasining rivojlanishi boy ma’naviy merosimiz bo‘lgan

olimlarimizning ilmiy merosini mukammal o‘rganishga keng imkoniyat bermoqda. Bu borada o‘zbek yozuvchisi Odil Yoqubov adabiy merosini o‘rganishning yangicha yondashuvlarini taqoza etmoqda.

Xususan buyuk o‘zbek yozuvchisi Odil Yoqubov o‘zining bir qator asar, roman, qissa, doston va dramalari bilan yozuvchilar orasida ajralib turadi. Ayniqsa adibning “Diyonat” romanida XX asrning 50-70 yillari oralig‘idagi turg‘un mafkurani zararli oqibatlarini juda ham chiroyli qilib ijodiy va rostgo‘ylik bilan yoritib beradi. Odil Yoqubov “Diyonat” asarida rahbar kadrlarning o‘z mansabidan foydalanishi va xunuk illatlarni yoritib berishga harakat qilgan.

XX asrning 50-60 yillarida rahbar xodim obrazlari ko‘p yoritilgan. Ko‘plab yaratilgan obrazlar deyarli bir xil bo‘lib unda rahbar xodimlarning illatlari olib chiqilgan. Ammo, Odil Yoqubovning ushbu romanida qolganlarnikidan farqli o‘laroq timsollar anchayin murakkab yoritilgani bilan ajralib turadi. Asarda Otaqo‘zi obrazi orqali mavjud tartib-qoidalarni mensimaydigan, ba‘zan tanish-bilishchilik qilib ish bitiradigan, mansab vazifasini suiste‘mol qilib, qo‘l ostidagilarga shafqatsiz va toshbag‘irlik bilan muomala qiladigan inson obrazini gavdalantiradi. Unga qarshi esa halol, insofli, diyonatli Normurod Shomurodov shaxsi tasvirlangan.

Odil Yoqubov ushbu romani orqali qonunni mensimaydigan rahbarlarning oxirida ko‘p afsus va nadomatlar chekilishi mumkinligini bu asar orqali yetkazib bergani bilan ajralib turadi.

Ushbu roman vaqtida kitobxonlar orasida voqea bo‘lgan asarlar qatoridan joy olgani hamda obrazlar orqali insonning botiniy olamini ochib berishi bilan psixologik roman sifatida talqin qilinishga loyiq. Garchi “Diyonat” ijtimoiy talqin ustuvorlik qilgan asar sifatida qaralsa-da, lekin unda inson tuyg‘ulari, xatti-harakat va kechinmalari ustuvorligini kuzatish mumkin. “Mingbuloqdan keladigan bir ariq suv dam oftobda kumushday yarqirab, dam ariq tagidagi giyohlar rangida ajib tovlanib, daryoday hayqirib oqmoqda edi. Haydar ariqqa yetmasdanoq kiyimlarini yechib, bedazorga otib yubordi-da, hurkak otday oldindan dir-dir titrab, o‘zini suvga otdi. Muzday buloq suvi a‘zoyi badanidan o‘t chiqarib yuboribdiki, u jonholatda suvda o‘ynoqlab, o‘zini u qirg‘oqdan-bu qirg‘oqqa otdi, lekin zum o‘tmay tanasi suvga o‘rganib, allaqanday tinchib qoldi. U tol shoxini ushlab, suvda chalqancha tushib yotdi-da, ko‘zini yumdi. Nazarida, go‘yo suv emas, kimningdir muloyim qo‘li uning horg‘in tanasini mehr bilan silayotganday, har bir hujayra, har bir asab tolasiga orom berib, sevib silayotganday tuyuldi”.

Ushbu parchada ham o‘ziga xos mazmun kasb etib, unda qahramon ichki dunyosi, yashash maydoni va falsafiy dunyoqarashi aks ettira olganini kuzatish mumkin. Haydar obraziga nazar tashlasak, uning hayot yo‘li o‘zgachaligi ko‘zga

tashlanadi. Bo‘lajak olim to‘q oilada voyaga yetadi. Uning otasi Otaqo‘zi millioner raislardan biri. Qalbi faxr va g‘ururga to‘la yigitcha tog‘asi Normurod Shomurodovni dastavval uncha tushunmaydi. Ko‘ngliga ishq olovi tushgan qahramon turmush mohiyatiga kirib borgan sayin domlani anglay boshlaydi. Aslida unda ro‘y bera boshlagan evrilish tashqi voqelikka bo‘lgan munosabat shaklida aniqlik kasb etadi. Tevarak-atrofdagi ro‘y berayotgan hodisalar uni o‘ylashga, fikrlashga majbur etadi. U ilgari o‘zi faxrlanib yuradigan otasi boshi berk ko‘chaga kirib qolganligini anglaydi. Biroq endi tavba va tazarruga o‘rin yo‘q! Muallif qabariq tasvir prizmasida inson idrokini band etgan ijtimoiy-ruhiy muammolarni ko‘ndalang qo‘yadi. Xotiralar dinamikasida qayta tiklangan imkoniyat asar leytmotivini tashkil qiladi. Adib yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, adashishlarni mantiqan asosli tasvirlaydi. Lekin baholashni emas, inson dunyoqarashidagi evrilishlarni ko‘rsatishni birinchi planga chiqaradi. Odamzotning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqidagi falsafiy teran tasvir yo‘nalishi adibning dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi.

Boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq Odil Yoqubov romanda Otaqo‘zini ziddiyatli rahbar sifatida gavalantirgan bo‘lsada, lekin aslida u juda ham diyonatsiz inson emas, o‘rni kelganda boshqalarni ham eshituvchi, oilasi va atrofdagilarga mehribon, yaxshi insoniy fazilatlarga ham egaligi bilan ajralib turadi. Shu orqali bu boshqa yozuvchilar tomonidan yaratilgan obrazlardan faqr qiladi. Odil Yoqubov ushbu romani orqali insonlarning ruhiy barkamolligi, qadr-qimmatini va gumanizmi ochiqlab berilgan. Adibning bu romani shaxs psixologiyasi, jamiyat tabiat hodisalari, badiiy talqin insonlar obrazi orqali yoritib bergani bilan tahsinga loyiqdir.

Odil Yoqubovning diyonat romani orqali insonning komillik muammosi, ma’naviyat masalasi, adabiyotning bosh talabi umuminsoniylik mezoni asosida yoritib bergani bilan o‘z o‘rniga egadir. Yozuvchining ilmiy – nazariy qarashlari jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni olib chiqar ekan bu holat timsollar xarakterining shakllanishiga olib keldi. Adib tomonidan ilgari surilgn g‘oyalar va qarashlar mazmuniy butunlik orqali ko‘plab talqinlarga yo‘l ochadi. Yozuvchi romanni yoritib berishida maishiy tafsilotlar orqali mavjud insoniy haqiqatlarni yoritib bera olgan. Badiiy mohiyatning o‘ziga xosligi hamda yozuvchi tomonidan obrazni individual xususiyatlar bilan konkretlashtirgani asarga yangicha mazmun baxsh etadi.

Umuman olganda aytishimiz mumkinki, noyob durdona hisoblangan “Diyonat” romani jamiyatdagi illatlarni qotib qolgan mafkura va rahbar obrazidagi jamiyatdagi rivojlanishga to‘sqinlik qiladigan jarayonlarni ochib berishi bilan birgalikda davr va jamiyatning butun borlig‘i, zamon evrilishi silsilasida vujudga

kelgan ziddiyatlar, real muammolar hamda negativ holatlar o‘z ifodasini topgani bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Odil Yoqubovning “Diyonat” romani kitobxon ko‘ngliga kirib borishda hamda o‘zining obrazlar talqinida o‘zgacha yondashuv asosida yoritilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Adib ijodi bugungi rivojlanish davrida milliy adabiyotimiz, merosimizning kelajak avlodga yetkazib berilishi hamda kitobxonda jamiyat va shaxs tabiatidagi ziddiyatli holatlarni, rahbar kadrlarning boshqaruvida romanda aks etganidek illatlar egasi bo‘lishning oxiri voy ekani haqidagi hayotiy xulosalar chiqarishi uchun asos yaratishi bilan qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarimsoqov B. Adabiyotning ijtimoiy tabiati. O‘TA. №2, 1995 yil. 46-52-b.
2. Yoqubov O. Diyonat. Adabiyot va san’at. 1997-y.
Qurbonov T. Portret yaratish uslubi haqida. O‘TA, №2, 1996, 32-35-b.
1. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
2. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
3. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
3. 7.O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
4. 8.Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
5. 9.Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
6. 10.Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. *GOLDEN BRAIN. RAIN* ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>